



"IRODA" UMUMIY MA'NOLI ATOV BIRLIKLARNING LEKSIK XUSUSIYATI

Ashurova Zarina A'loqul qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakultet 3-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14025297>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-oktabr 2024 yil
Ma'qullandi: 29-oktabr 2024 yil
Nashr qilindi: 30-oktabr 2024 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Ma'lumki, til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab hodisa bo'lib, tilda mavjud bo'lgan so'zlarning bugungi kunda qadar bosib o'tgan tarixiy yo'li tilshunoslik oldiga qo'yilgan asosiy masalalardan biri sanaladi. Uni o'rganish, tadqiq etish, fonetik, leksik va grammatik jihatdan chuqur yondashish hamda qardosh turkiy tillar tarixini o'rganib, tildagi so'zlarni qiyosiy tarafdin solishtirish tilshunoslikdagi muhim omil sanaladi.

Xususan, tilshunoslikda "iroda" leksemasi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar Shu. Rahmatullayev, N.Mamatovning "O'zbek tilining antonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da hamda mashhur turkiy tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarlarida bu so'z bilan bog'liq bo'lgan izohlar keltirib o'tilgan.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi o'zbek tilining uzoq yillar mobaynida butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Shu sababli ham undagi mavjud so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbayi ham bir xildir. Xalqlar o'rtasida yuzaga keladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar natijasida bu xalqlarning tillariga ham, lug'at tarkibiga ham shubhasiz o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida bir tilda xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa bir qator elementlar ikkinchi bir tilda o'tib, unga o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir qilish boshqa qatlamlardan ko'ra, ayniqsa tilning leksik qatlamida kuchliroq bo'ladi va aniq namoyon bo'ladi. O'zbek tilshunosligida boshqa tillardan : arab, fors, turk, rus va ingliz tillarining sezilarli ta'siri natijasida leksik qatlam bilan bir qatorda o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan.

"Iroda" leksemasini etimologik jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, bu so'z arab tilidan o'zlashgan bo'lib, dastlab irodat(un) shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga cho'ziq a unlisini â unlisiga almashtirib so'z oxiridagi t tovushi tashlab qabul qilingan: iradat-iradâ (iroda); asli ko'p ma'noli Rada fe'lining "qidirmoq", "istamoq" ma'nosi bilan hosil qilingan, "biron bir ish yoki amalni bajarishga xizmat qiluvchi qat'iy xohish, intilish ma'nosini anglatadi. Bu so'z o'zbek tilida ayol kishining atoqli oti sifatida ham ishlatiladi. Bu so'zdan irodali, irodasiz sifatlari, bu sifattan yasalgan irodasizlik mavhum oti yasalgan.

"Iroda" tushunchasi

1) Insonda mavjud bo'lgan maqsadni yuzaga chiqaruvchi qat'iyat va matonat.

2) Ixtiyor, xohish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Misol: U o'z irodasiga qarshi ish tutishga majbur bo'ldi.

Xususan, Sh.Rahmatullayev N. Mamatovning "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da irodaning antonimi haqida quyidagi izohlar berilgan

Irodali- irodasi kuchli, to'siqlarni matonat va qat'iyat bilan yenga olishga qodir bo'lib, biror maqsad yo'lida duch kelgan qiyinchiliklarni yenga oladigan qat'iyat bilan kurashadigan fazilatdir.

Misol: Muhiddinqori Yoqubov irodali, harakatchan, xushchaqchaq ajoyib ovozli san'atkor edi.

Shu yo'l egilgan qomatingizni ko'taradi. Irodali bo'ling, faqat irodali bo'ling

Irodasiz-irodasi sust, maqsad sari harakat qila olmaslik, mas'uliyatsizlikdir. Biror maqsad yo'lida duch kelgan qiyinchiliklarni ko'rib chekinadigan xususiyat sanaladi.

Misol: Tursunboy obraziga xos bo'lgan irodasizlik, qo'rqqoqlik illatlari, o'z onasining so'nggi yo'lga kuzata olmaganligiga sabab bo'ldi.

G'ulomjon hech kutilmaganda irodasizlikka berilib, hamma narsadan ko'nglim sovidi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Falsafa qomusiy lug'ati" da "iroda" leksemasi nisbatan keng yoritib berilgan.

Valyuntarizm (lot. "valuntas"-iroda) falsafa psixologiyadagi oqim. Bu atama 1883-yilda F.Tennies tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Valyuntarizm irodani birlamchi deb e'tirof qiladi. Uni mavjudotning bosh asosi deb uqtiradi. Valyuntarizmning yetuk vakili Shopengauer K.ning hodisalar, tasavvurlar asosida yotgan "narsa o'zidagini" birlamchi, hech nimaga bog'liq bo'lmagan "olamiy irodadir" deb davo qiladi. Uning fikricha, barcha tirik vujudlarning harakatlantiruvchi kuchi- stixiyali instinktiv xarakterga ega bo'lishi "yashashga intilish irodasidan iborat". Ongli iroda ko'r-ko'rona, instinktiv individual irodaga nisbatan hosiladir. Faylasuf Fixtening fikricha, iroda dunyoning mutlaq ijodiy namunasidir. Hartman nuqtayi nazaridan esa iroda barcha narsada mavjud va har yerda ongsiz ta'sir qiladi. U atamalarni irodaning birligi deb qaraydi. Qomusiy lug'atda valyuntarizm bilan birgalikda iroda tushunchasiga alohida ta'rif berib o'tilgan.

Iroda(arab.-xohish, istak, maqsad)- insonning ma'lum maqsad yo'lidagi o'z xatti-harakatini ongli ravishda yo'naltirib turishi, shu yo'lidagi qat'iyatligi, mavjud to'siqlarni yenga olishga qodir bo'lgan ruhiy-ma'naviy salohiyat. Iroda inson faoliyatining muhim xususiyati, uning hayot mazmunini belgilab beruvchi muhim omil sanaladi. Irodali odamda maqsad va faoliyat izchilligi kuzatiladi. Oldinga qo'yilgan maqsadga bilan ishonch "iroda"ning muhim kuchi va bosh omilidir. Zero, qat'iy ishonch maqsad yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga ruhiy asos bo'ladi. Irodani Allohga va shaxsga bog'liq deb ham talqin qiladilar. Shu ma'noda Allohning irodasi va bandaning irodasi degan tushunchalar paydo bo'lgan. Allohning irodasi insonning irodasiga nisbatan ancha keng, undan ustun tushunchadir. Allohning irodasi jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarining o'ziga xos me'yorini, muvozanatini belgilovchi kuch sifatida qaraladi. Har bir jamiyat taraqqiyoti, uning ilg'or g'oyalarining amalga oshishi mazkur jamiyat a'zolarining irodasiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, xalq va millat irodasini shakllantirishga, iroda tarbiyasiga ajdodlarimiz azaldan alohida e'tibor berib qaragan. Irodali bo'lishni e'tiqodli bo'lish bilan chambarchas bog'lab, chunki ma'lum bir qarashlar, ta'limotlar, e'tiqodlarning g'oyaviy asosini yaratib beradi. E'tiqodning zaif yoki mustahkamligi, umuminsoniy va milliy manfaatlarga mos kelishi yoki kelmasligi ham irodaning mustahkam bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy asarlari mavzu jihatidan rang-barang bo'lib, shoir asarlarining izohli lug'atida "iroda" tushunchasi ham keltirib o'tilgan. Asosan, iroda etmoq, iroda aylamoq-xohlamoq, istamoq ma'nolarini beruvchi fe'llari qo'llanilgan.

B.T.Ataxanov, M.B.Isabayev tomonidan tuzilgan "Fuqarolik jamiyatidan tuzilgan atamalar lug'ati" kitobida "iroda" leksemasi quyidagi termin bilan qo'llanilgan.

Votum(lot.votum-istak, xohish)- vakillik organlari tomonidan hukumatga, uning alohida a'zosiga, boshqa ijro etuvchi organga, ijro etuvchi hokimiyatning mansabdor shaxsiga ishonch yoki ishonchsizlik bildirish.

Siyosiy iroda- sub'yektning o'z faoliyatlari jarayonlarini boshqarishda namoyon bo'ladigan siyosiy qobiliyati. Siyosiy irodaning ongda faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish yo'llarini oldindan aniqlab, ma'lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi.

J. Omonturdiyev va A. Omonturdiyev kabi olimlar tomonidan tuzilgan "Ma'rifiy-irfoniy istilohlarning izohli lug'ati" kitobida iroda leksemasi quyidagicha tasniflanadi:

Iroda(irodat)- Allohning subutiy sifatlaridan. Bunda barcha voqeliklar, jumladan inson taqdiri, baxt-u baxtsizligi Allohning xohish-irodasiga bog'liq ekanligi nazarda tutilgan:

Qadalda bir tikan, yo tushsa bir qil,

Irodasiz emas, hech ish, yaqin bil.

Agar mo're qo'yar yer ustiga po,

Va gar bir zarracha qum bo'lsa bejo,

Bulardin yo kichikdur, yo ziyoda

Emasdir hech nimarsa beiroda (So'fi Olloyor)

"Iroda"leksemasi arab tilidan tarixiy taraqqiyot, madaniy aloqalar natijasida arab tiliga xos bo'lgan ba'zi jihatlar o'zgarishga uchrab, iroda leksemasi sifatida tilimizga qabul qilindi. Turkiy tilda yaratilgan bir qator asarlar, qo'lyozmalarda shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi so'z sifatida e'tirof etiladi. Ushbu leksema, asosan, azm-iroda, qat'iyat, matonat, istak, xohish kabi leksemalar bilan yondosh bo'lib, insonning o'z faoliyatini maqsad sari intilishni to'g'ri yo'naltira olish mahorati sanaladi.

"Iroda"leksemani semantik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, iroda leksemasi "maqsadni amalga oshirish uchun kishida bilan ishonch"ma'nosiga ega.

1)o'z-o'zini tuta olish; 2)chidamlilik; 3) Intizom; 4) jasorat kabi semalar ostidan birlashadi. Ushbu sema ma'no xususiyatiga ko'ra denotativ sema bo'lib, " Iroda" sememasi tarkibidagi yuqorida ajratilgan semalar mazkur ma'no haqida yetarlicha ma'lumot beradi. Ma'lumki, semema tarkibida denotativ sema ham, konnotativ sema ham bo'lishi mumkin. Ammo bizga berilgan "iroda"leksemasida voqelikka bo'lgan subyektiv munosabat deyarli kuzatilmaydi

. Stilistika bo'limida "iroda" leksemasi faol qo'llaniladi. Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqda xilma-xil ko'rinishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tilda mavjud bo'lgan har bir so'z ma'lum bir uslubda, ma'lum bir maqsad yuzasidan qo'llaniladi.

So'zlashuv uslubi ikki guruhga ajraladi: 1) adabiy so'zlashuv uslubi 2) oddiy so'zlashuv

"Iroda" leksemasi adabiy so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, negaki ushbu so'zda oddiy so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan piching, hazil-mutoyiba, askiya kabi ma'nolar mavjud emas. Rasmiy uslubda organlar, sud, adliya, fuqarolik holatlarini qayd etuvchi va natarial ishlar va boshqa sohalarni o'z ichiga qamrab olib, rasmiy hujjatlar,, qaror va farmoyishlar ariza, shikoyat, bayonnoma kabilar bu uslubning xarakterli xususiyatlaridandir. Shu sababdan ham bu uslubda "iroda" umumiy ma'noli atov birliklar qo'llanilmaydi.

Ilmiy uslubda bu leksema keng qo'llanilib, asosan falsafa va psixologiyada keng qo'llaniladigan atama hisoblanadi.

Misol: Iroda- mustaqil psixik jarayon hisoblanib, boshqa psixik hodisalarning jarayoni sifatida ham keng qo'llaniladigan, shaxs xatti-harakatlarini boshqarish shaklidir.

Publitsistik uslubda ommaviy axborot vositalarida, gazeta va jurnallarda olib boriladigan intervyular, maqolalar bu uslubning xarakterli xususiyati sanaladi. Bu uslubda ham "iroda"leksemasi ma'lum bir maqsadga qaratilgan holda ishlatiladi.

Badiiy uslub inson amaliy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqliligi, barchaga barobarligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda qo'llanilgan leksemalar estetik ta'sirni kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, shuningdek yangidan yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy uslubida qo'llanilgan "iroda"leksemasi muallif tomonidan qahramonning yuksak insoniy fazilatga ega ekanligini aks ettiradi.

Adabiyotlar

1 Sh. Rahmatullayev. N. Mamatov R. Shukurov "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati" Toshkent-1989

2.A.Hojiyev "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'at"

Toshkent-1974

3.A.Hojiyev, A.Nurmonov, S. Zaynobiddinov, K. Kokren a boshqalar "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlar ning izohli lug'at" Toshkent-2001

4. S. Saidova "Arab tilidan o'zlashgan atamalarining lug'aviy-ma'noviy xususiyati" maqolasi